



MAKTAB TA'LIMIDA O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHGA OID TADQIQOTLAR VA METODIK TAVSIYALAR

Saitmurodov Aziz Baxriddin o'g'li

*ToshDO'TA*Uning 3-kus talabasi

saitmurodovaziz777@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan nazariy va amaliy jihatlar yoritiladi. Matn bilan ishlashda o'quvchilarning tafakkurini faollashtirish, asosiy mazmunni anglash, fikrni tahlil qilish kabi kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali metodik yondashuvlar taklif etiladi. Maqolada ilgari amaliyotda kam qo'llanilgan, lekin yuqori natija beruvchi interaktiv metodlarga e'tibor qaratilgan.*

Abstract: *This article discusses the theoretical and practical aspects of developing reading comprehension skills in secondary schools. Effective methodological approaches are proposed that serve to develop competencies such as activating students' thinking when working with text, understanding the main content, and analyzing ideas. The article focuses on interactive methods that have been rarely used in practice before, but have yielded high results.*

Kalit so'zlar: *o'qib tushunish, matn tahlili, metodika, ta'lim jarayoni, o'quv faoliyati, interaktiv yondashuv.*

Keywords: *reading comprehension, text analysis, methodology, educational process, educational activity, interactive approach*



Kirish

Bugungi ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, mantiqiy mushohada yuritishi va axborotni qayta ishlash ko'nikmalari ularning o'qib tushunish malakasiga bevosita bog'liqdir. O'quvchining matn bilan ishlashdagi faoliyati faqatgina uni ovoz chiqarib o'qishdan iborat emas, balki u matnda ifodalangan asosiy g'oyani anglash, muallif pozitsiyasini tushunish, voqea-hodisalar orasidagi bog'liqlikni tahlil qilish va o'z fikrini asoslash jarayonidir. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, o'qib tushunish — bu "matn bilan muloqot qilish, undagi axborotni qabul qilish, anglash va uni shaxsiy bilimlar bilan integratsiya qilish jarayoni" (Anderson, 2008). Davlat ta'lim standartlarida o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirish asosiy o'quv maqsadlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Jumladan, unda "matn mazmunini tushunish, asosiy fikrni ajrata olish, axborotni tahlil qilish va xulosa chiqarish" umumiy o'rta ta'limning asosiy kompetensiyalaridan biri sifatida belgilangan (O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standarti, 2020).

O'quvchilarda o'qib tushunish malakasining shakllanishi ularning boshqa bilim sohalarida ham muvaffaqiyat qozonishiga zamin yaratadi. Jan Amerika pedagogi L. Rosenblattning interaktiv o'qish nazariyasiga ko'ra, "o'quvchi matn bilan o'zaro ta'sirga kirishar ekan, uning mazmuni faqat matndan emas, balki o'quvchining shaxsiy tajribasi, bilim doirasi va tushunchalari bilan uyg'unlashgan holda yuzaga chiqadi" (Rosenblatt, 1994). Demak, o'quvchini faol ishtirokchi sifatida shakllantiruvchi metodik yondashuvlarga mazmunli o'qib tushunishni ta'minlashi mumkin. Shu boisdan, o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirish uchun ilg'or va interaktiv metodik vositalarni amaliyotga tatbiq etish hozirgi ta'limning dolzarb vazifasiga aylangan.

Asosiy qism



Maktab ta'limida o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri bo'lib, bu jarayon o'quvchilarning intellektual rivojlanishi, tanqidiy fikrlashi va mustaqil axborot izlash qobiliyatini shakllantiradi. O'qib tushunish faqat til va adabiyot fanlarida emas, balki barcha fanlar bo'yicha muvaffaqiyatli o'qishning asosi hisoblanadi (Snow, 2002). Shu sababli ushbu ko'nikmani rivojlantirishda zamonaviy, interaktiv va ko'p bosqichli metodik yondashuvlarga ehtiyoj sezilmoqda.

Tadqiqotlar ko'rsatmoqda-ki, o'qib tushunish malakasi quyidagi bir nechta bosqichli jarayonlar asosida shakllanadi: oldindan tayyorgarlik, matnni izchil tahlil qilish, mazmunni umumlashtirish va o'z fikrini ifodalash (Pressley, 2006). Bu bosqichlarga mos holda metodlar tanlanishi ta'lim samaradorligini oshiradi.

Quyida amaliyotda sinab ko'rilgan va o'quvchilar faoliyatini faollashtiruvchi samarali metodik yondashuvlar bayon etiladi:

1. "Savol zanjiri" usuli

Bu usulda o'quvchilar matnni o'qigach, har biri o'z savolini tuzadi va navbatdagi o'quvchiga yo'naltiradi. Bu zanjir shaklida davom etib boradi va oxirida muhokama qilinadi. Metod o'quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtiradi, matnga nisbatan ko'proq savol va javob yaratish malakasini shakllantiradi. Ushbu yondashuv Vygotskiy nazariyasidagi "yaqin rivojlanish zonasi"ga mos keladi, chunki o'quvchilar bir-biriga intellektual yordam ko'rsatadi (Vygotsky, 1978).

2. "Konsept xarita" bilan ishlash

Bu usulda o'quvchilar matn asosida asosiy tushunchalarni tanlab, ularni grafik ko'rinishda ko'rsatadilar. Tushunchalar o'rtasidagi sabab-oqibat va semantik bog'liqliklar belgilanadi. Novak va Gowin (1984) konsept xaritalar orqali bilimlar strukturasi vizual tarzda mustahkamlanishini ta'kidlagan.



3. “Dramatik o‘qish”

Badiiy matnlar ustida ishlashda personajlarga bo‘lingan holda o‘qish orqali o‘quvchilar matn mazmuniga chuqurroq kirib boradilar. Bu usul emotsional-intellektual anglashni kuchaytiradi. Emotsional intellekt rivojlangan o‘quvchilar matnni nafaqat tushunadi, balki baholaydi ham (Goleman, 1995).

4. “Blokli tahlil”

Matn kichik qismlarga bo‘linadi va har bir qism ustida alohida ishlanadi. Har bo‘limdan so‘ng muhokama, qisqacha tahlil yoki chizma tuzish orqali material yodda saqlanadi. Ushbu yondashuv kognitiv yuklamani kamaytiradi va bosqichma-bosqich o‘qib tushunishni ta‘minlaydi (Sweller, 1988).

5. “Matnga qarshi bahs”

O‘quvchilar muallif fikrini tahlil qiladilar va unga nisbatan tanqidiy yondashadilar. Bu metod tanqidiy fikrlash, mustaqil nuqtai nazar bildirish va dalil keltirish malakalarini shakllantiradi. Paul & Elder (2006) fikricha, tanqidiy fikrlash o‘qishning eng yuqori darajasi hisoblanadi.

6. “So‘z buluti” orqali umumlashtirish

Matn o‘qib bo‘lingach, asosiy kalit so‘zlar ajratilib, ular asosida vizual so‘z buluti yaratiladi. Keyinchalik har bir kalit so‘z bo‘yicha izoh beriladi yoki savollar tuziladi. Bu yondashuv asosiy g‘oyalarni aniqlash va qisqacha umumlashtirish malakasini rivojlantiradi.

Mazkur metodlarning barchasi o‘quvchining matnni faqat tushunishigagina emas, balki uni qayta ishlash, o‘z fikri bilan boyitish va anglaganlarini boshqalar bilan baham ko‘rish faoliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, bu metodlar o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish, shuningdek, ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni egallashga yo‘naltiradi.



Xulosa

O‘qib tushunish ko‘nikmasi o‘quvchilarning bilim olish, tafakkur qilish, tahlil va sintez asosida xulosa chiqarish, shuningdek, o‘z fikrini asoslash kabi faoliyatlarining poydevorini tashkil etadi. Maktab ta’limida bu ko‘nikmani shakllantirish uchun faqatgina an’anaviy yondashuvlar emas, balki o‘quvchini markazga qo‘ygan, uning faol ishtirokini ta’minlaydigan, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rag‘batlantiradigan metodlar muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida ko‘rib chiqilgan metodik tavsiyalar — “savol zanjiri”, “konsept xarita”, “dramatik o‘qish”, “blokli tahlil”, “matnga qarshi bahs” va “so‘z buluti” kabi yondashuvlar — o‘quvchilarning matnni chuqur anglash, asosiy g‘oyalarni ajratish, o‘z fikrini shakllantirish va uni dalillar bilan asoslash ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, o‘qib tushunish malakasining rivojlanishi o‘quvchilarning nafaqat til va adabiyot fanlari bo‘yicha, balki barcha fanlar bo‘yicha o‘zlashtirish darajasini oshiradi. Shu bois, dars jarayonlarida mazkur metodik yondashuvlardan tizimli va maqsadli foydalanish ta’lim sifatini oshirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. (2020). Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti. Toshkent: O‘qituvchi.
2. Anderson, R. C. (2008). Becoming a Nation of Readers: The Report of the Commission on Reading. Washington, DC: National Institute of Education.
3. Snow, C. (2002). Reading for Understanding: Toward an R&D Program in Reading Comprehension. RAND Corporation.



4. Pressley, M. (2006). Reading Instruction That Works: The Case for Balanced Teaching. New York: Guilford Press.
5. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
6. Novak, J. D., & Gowin, D. B. (1984). Learning How to Learn. Cambridge University Press.